

# **2022-2023-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining korrupsiyasiga qarshi kurashish DASTURI**

## **Dasturning yaratilish maqsadi:**

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2022-2023-yillarga mo‘ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi (keyingi o‘rinlarda dastur deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi (keyingi o‘rinlarda O‘zR FA deb yuritiladi) tizimida uning ilmiy muassasalari, tashkilotlari faoliyatida korrupsiyaning yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ko‘rinishlarining oldini olish bo‘yicha profilaktika ishlarini faollashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi xodimlarining huquqiy madaniyati va bilimini oshirish, ularning huquqiy bilimlardan xabardorligi va targ‘ibotini yaxshilash;

## **Dasturni ishlab chiqish uchun asos:**

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 3-yanvardagi “Korruptsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydag‘i “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son qarori bilan tasdiqlangan 2019-2020-yillarga mo‘ljallangan Korruptsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi;

O‘zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligining 2021-yil 15-martdag‘i 04-10/19-1895-son yo‘riqnomasi ba 2021-yilning 21-dekabridagi 01-07/7890-sonli xati;

O‘zR FA Prezidenti B.S.Yuldashevning O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida ko‘rilayotgan chora-tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risida 2021-yil 12-apreldagi 18-54-sonli buyrug‘i.

## **Dasturning vazifalar:**

O‘zR FA ilmiy muassasa va tashkilotlari tizimida korrupsiyaning mumkin bo‘lgan ko‘rinishlariga olib keladigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish;

O‘zR FA ilmiy muassasa va tashkilotlari xodimlarining korruptsiyaga qarshi xulq-atvorini rag‘batlantirish;

O‘zR FA tizimida korruptsion ma’muriy, iqtisodiy va ishlab chiqarish kesimida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan huquqbazarliklarining oldini olish;

O‘zR FA ilmiy muassasa va tashkilotlari xodimlarini korruptsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha xabardor qilish va o‘qitish samaradorligini oshirish;

O‘zR FA ilmiy muassasa va tashkilotlari xodimlari uchun respublika ijro etuvchi hokimiyyat organlari va mahalliy davlat hokimiyyati organlari faoliyati, shuningdek, jahon hamjamiyatiga ma’lumotlarning ochiqligini ta’minlash;

O‘zR FA tizimidagi ilmiy muassasalar va tashkilotlar xodimlarining huquqiy bilim darajasini oshirish hamda xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish va axloqiy xulqatvor me’yorlarini targ‘ib qilish;

O‘zR FA xodimlari tomonidan kundalik korrupsiyaning mumkin bo‘lgan ko‘rinishlarini bartaraf etish;

O‘zR FA tizimida o‘tkazilayotgan ijtimoiy ahamiyatga molik tadbirlar sifatini oshirish va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, shuningdek, xodimlarning moddiy ahvolini yaxshilash;

**Dasturning mas’ul ijrochisi:**

O‘zR FA Korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasi (keyingi o‘rinlarda – Komissiya, deb yuritiladi).

**Dasturning amalga oshirish muddati: 2022-2023 yillar.**

**Dasturning tadbirlar ro‘yxati:**

Ushbu dastur ijrosini ta’minalash maqsadida O‘zR FA tomonidan 2022-2023-yillarga mo‘ljallangan quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha tadbirlar kompleksi qabul qilinadi:

O‘zR FA tizimida korrupsiyani aniqlash va unga qarshi kurashish mexanizmlarini shakllantirish va takomillashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish;

O‘zR FA tizimida ma’muriy, xo‘jalik va ishlab chiqarish faoliyatining o‘ta xavfli sohalarida korrupsiyaning yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ko‘rinishlariga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy maqsadli ishlarni tashkil etish;

O‘zR FA ilmiy muassasa va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida monitoring va tadqiqot faoliyatini amalga oshirish;

O‘zR FA ilmiy muassasalari va tashkilotlari tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha jamoat komissiyalarining faoliyatini faollashtirish va ularning ishini Komissiya ish rejali bilan kelishilgan holda amalga oshirish;

Ilmiy muassasa va tashkilotlarning, shuningdek, xodimlarning korrupsiyaga qarshi faolligini oshirish;

O‘zR FA xodimlarining korrupsiyaga qarshi targ‘ibot ishlarini olib borishni, shu jumladan, komissiya a’zolari joylarga borib, ilmiy muassasa va tashkilotlar xodimlari bilan axborot-tushuntirish uchrashuvlarini o‘tkazish orqali ularning xabardorligini ta’minalashi, shuningdek, O‘zR FA Davlat va huquq instituti xodimlari mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risida targ‘ibot ishlarini olib borishi lozim.

**Dasturni amalga oshirish mexanizmi:**

Dasturni amalga oshirish mexanizmi Dasturning mas’ul ijrochisi - komissiya tomonidan belgilanadi va dastur tadbirlari amalga oshirilishini ta’minalash bo‘yicha zarur tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

**1. Dasturning mas’ul ijrochilar:**

Dastur tadbirlarini o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish uchun mas’uldir;

O‘zR FA ilmiy muassasa va tashkilotlarida dastur tadbirlarini birgalikdagi faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning dastur tadbirlarini amalga oshirish bo‘yicha kelishilgan harakatlarini ta’minlash bo‘yicha doimiy ishlarni amalga oshiradi;

Komissiyaning 2022-2023-yillarga mo‘ljallangan ish rejasini ishlab chiqadi va Dasturning maqsadlari va faoliyatiga muvofiq tadbirlarni amalga oshirishning ustuvorligini belgilaydi hamda O‘zR FA Direktorlar kengashiga tasdiqlash uchun kiritadi;

O‘zR FA ilmiy muassasa va tashkilotlarining 2022-2023-yillarga mo‘ljallangan namunaviy ish rejasini ishlab chiqadi, uni O‘zR FA ilmiy muassasa va tashkilotlariga yetkazadi hamda ularning qabul qilinishi va amalga oshirilishini nazorat qiladi;

Dastur tadbirlari va Komissiya ish rejasining bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi, zarur hollarda faoliyat mazmunida hamda ilmiy muassasa va tashkilotlarning uni amalga oshirish bo‘yicha tegishli rejali bajarilishi yuzasidan monitoring olib boradi.

### **Dastur tadbirlarining tashkilotchilari - O‘zR FA ilmiy muassasa va tashkilotlari.**

#### **Dastur tadbirlarining tashkilotchilari:**

Dastur doirasidagi tadbirlarni amalga oshirish uchun javobgardir;

dastur tadbirlarining sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta’minlaydi;

dasturning mas’ul ijrochisiga Dastur tadbirlarini amalga oshirilishi bo‘yicha hisobot beradi;

har chorakda va har hisobot yilidan keyingi joriy yilning 10-yanvariga qadar Dasturning mas’ul ijrochisiga Dastur tadbirlarining bajarilishi to‘g‘risida hisobot taqdim etadi.

3. Komissiya ilmiy muassasa va tashkilotlarning jamoat komissiyalari bilan birgalikda O‘zR FA tizimida korrupsiyaning yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ko‘rinishlarining oldini olish bo‘yicha targ‘ibot va profilaktika tadbirlarini olib boradi.

Dastur faoliyatini amalga oshirishning eng muhim jihatni ularni rejalashtirish, monitoring qilish, takomillashtirish va tuzatish borasidagi o‘zaro bog‘liqlikdir.

Shu bilan birga, O‘zR FA tizimidagi ilmiy muassasa va tashkilotlarda tashkil etilgan korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha jamoat komissiyalari tomonidan Dastur tadbirlarini amalga oshirishning har chorakda tahlilini o‘tkazadi.

Dastur faoliyatini amalga oshirish to‘g‘risidagi axborotning oshkoraligni (shaffofligini) ta’minlash tartibi O‘zR FA <http://www.academy.uz> rasmiy veb-saytiga joylashtirish orqali amalga oshiriladi.

#### **Dastur tadbirlarini amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar:**

O‘zR FA tizimida O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi davlat siyosatini samarali amalga oshirish;

O‘zR FA tizimida boshqaruv va ilmiy-tashkiliy faoliyat samaradorligini oshirish;

O‘zR FA tizimida mumkin bo‘lgan korrupsiyaviy, xo‘jalik va ishlab chiqarish huquqbuzarliklarining oldini olish va profilaktika choralarini ko‘rish;

O‘zR FA ilmiy muassasa va tashkilotlari xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi xulq-atvor normalarini hamda xodimlarning odob-axloq kodeksi qoidalarini o‘rganishi va ularga rioya etishi;

O‘zR FA Boshqaruv apparatida, ilmiy muassasa va tashkilotlari Boshqaruv apparatida rahbarlik lavozimlarini egallab turgan shaxslarning, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi xodimlari orasida ham korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha kompetentsiya darajasini oshirish;

O‘zR FA ilmiy muassasa va tashkilotlari xodimlarining rahbariyatga ishonchini oshirish;

O‘zR FA ilmiy muassasa va tashkilotlari ilmiy kengashlari, shuningdek, ularning kasaba uyushmalari tashkilotlari va Yosh olimlar kengashlarining korrupsiyaning mumkin bo‘lgan ko‘rinishlarining oldini olish va profilaktika choralarini ko‘rishda ishtiroki ko‘lamini kengaytirish.

O‘zR FA korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan.